

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI**

**BANK XIZMATLARI ISTE’MOLCHILARI BILAN O‘ZARO MUNOSABATLARNI
AMALGA OSHIRISHDA TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATIGA QO‘YILADIGAN
MINIMAL TALABLAR TO‘G‘RISIDAGI NIZOMGA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH
HAQIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 25-sentabrda ro‘yxatdan
o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3030-2]**

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi **Qonuniga** muvofiq Markaziy bank Boshqaruvi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/18-son qarori (ro‘yxat raqami 3030, 2018-yil 2-iyul) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil 9-iyul, 27-son, 553-modda) bilan tasdiqlangan Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida **nizomga ilovaga** muvofiq qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Markaziy bank raisi M. NURMURATOV

Toshkent sh.,
2019-yil 24-avgust,
21/13-son

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 24-avgustdagi 21/13-son **qaroriga**
ILOVA

**Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat
banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan
qo‘shimchalar**

1. Quyidagi mazmundagi 35¹-band bilan to‘ldirilsin:

“35¹. Tijorat banklariga:

jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kreditlar (qarzlar) berish va kreditlar (qarzlar) bo‘yicha ularning majburiyatlarini xorijiy valyutada hisobga olish;

ilgari olingan kreditlar (qarzlar) bo‘yicha so‘ndirilmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lgan taqdirda jismoniy shaxslarga yangi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish taqiqlanadi.”.

2. Quyidagi mazmundagi 37¹ va 37²-bandlar bilan to‘ldirilsin:

“37¹. Qarz oluvchi kredit (qarz) bo‘yicha garovda turgan o‘zining depozitidagi (omonatidagi) mablag‘larini kredit (qarz) shartnomasi davrining xohlagan vaqtida depozit (omonatning) amal qilish muddatidan qati nazar, mazkur kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo‘naltirish huquqiga ega.

Bunda, qarz oluvchi kredit (qarz) bo‘yicha garovda turgan o‘zining muddatli depozitidagi (omonatidagi) mablag‘larini shartnomada ko‘rsatilgan depozit (omonat) muddati tugagunga qadar kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo‘naltirmoqchi bo‘lsa, u bu haqda bankni depozitni (omonatni) qaytarishni mo‘ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi lozim.

37². Qarzdordan kreditning joriy to‘lovi uchun kreditni (qarzni) qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushsa, u holda bank kelib tushgan mablag‘ning ortiqcha qismini karz oluvchining kreditining (qarzning) asosiy qarzini so‘ndirishga yo‘naltiradi hamda kredit (qarz) summasini qayta hisoblaydi, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa.”.

3. **3-bob** quyidagi mazmundagi 3 paragraf bilan to‘ldirilsin:

“3-§. Tijorat banklarining mijozlarga xizmat ko‘rsatishda qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun sanksiyalarin qo‘llash

40¹. Markaziy bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha zaruriy hujjatlar taqdim etilganidan keyin banklar tomonidan hisobvaraqlar ochishda sababsiz kechiktirilganlik yoki ochishdan bosh tortganlik, shuningdek mazkur turdagi hisobvaraqlar ochish uchun ortiqcha hujjatlarni talab qilganligi uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,02 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

40². Banklar tomonidan ish xaqi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ehtiyojlar uchun o‘z vaqtida nakd pul bermaganlik uchun mijozlarga, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlariga ular hisobvaraqlarida mablag‘ bo‘lganida bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,005 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

40³. Qonun hujjatlarida o‘rnatilgan mijozlar hisobvaraqlariga pullarni hisobga kiritish va hisobdan chiqarish tartibini buzganlik uchun, elektron to‘lovlarni amalga oshirishning va xato amalga oshirilgan elektron to‘lovlarni qaytarishning o‘rnatilgan muddatlarini buzishni istisno etgan holda, bank har bir holat uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,01 foizi miqdorida jarima to‘laydi.

Elektron to‘lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlari bank tomonidan buzilgan taqdirda, u mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to‘lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to‘lov summasining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘lashi shart.

Bankning aybi bilan elektron to‘lov noto‘g‘ri amalga oshirilgan taqdirda, u mablag‘ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazishi shart. Aks holda, mijoz bankdan mablag‘larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summaning 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘lashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

40⁴. Mazkur Nizomning 40² va 40³-bandlarida tijorat banklari uchun nazarda tutilgan sanksiyalar bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomasida ko‘rsatilishi shart.

40⁵. Banklar quyidagi hollarda jarima to‘lashdan ozod qilinadi:

a) fors-major holatlari, shu jumladan, banklararo elektron to‘lovlar tizimida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan uzilish;

b) bank mijozlari tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to‘lov hujjatlari taqdim qilinganda;

v) qonunlarda belgilangan tartibga bank yoki mijoz hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatilganda.

40⁶. Tijorat banklariga nisbatan mazkur paragrafda nazarda tutilgan jarima jazo choralarini qo‘llash sud qaroriga asosan amalga oshiriladi. Bunda bu kabi nizolar yuzasidan mijozlarning o‘zlari tomonidan sudga da’vo kiritiladi.

40⁷. Mazkur Nizomning 40¹ — 40³-bandlariga muvofiq bank tomonidan to‘langan jarima summasi qisman qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ygan bank (filiali) rahbari va bosh buxgalteri tomonidan qoplanadi.”.

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.09.2019-y., 10/19/3030-2/3804-son)